



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024  
2/2-сон



<b>Шахриёр Шодиёрович Тураев</b> Юридик хизматларнинг таркибида адвокатлик фаолиятининг ўрни ва унинг назарий масалалари	74
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Росулбек Исломович Пардаев</b> Яшил иқтисодиёт шароитида халқаро экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти	79
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева</b> Ўзбекистонда янги-музей туризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг мақсади ва вазифалари	83
<b>Latofat Tolibovna Yuldosheva</b> Tourism System: Tourism Supply and Bridging Components. Evidence from Samarkand	87
<b>Shaxnoza Shuxrat qizi Xashimova</b> Xorij mamlakatlarida sog‘lomlashtirish turizmi va uning rivojlanish xususiyatlari	93
<b>Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов</b> Халқаро туризм индустриясининг ривожланиш динамикаси, шаклланиш тенденциялари	99
<b>Мохинур Ўлмас қизи Ўроқова</b> Навой вилоятида сафари туризмни ташкил қилиш ва такомиллаштириш истиқболлари	104
<b>Мухауво Вахрллоевна Хамроева</b> Turizm sohasidagi hududiy transport xizmatlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili	109
<b>Парвина Аслиддин қизи Холматова</b> Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий ва ижтимоий аҳамияти	113
<b>Kamol Sharifovich Yuldashev</b> Sayohatni mustaqil rejalashtirishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari va uning bosqichlari	117
<b>Анжим Айдосбаевна Ембергенова</b> Қорақалпоғистон Республикасида замонавий туризмни ривожлантириш йўналишлари	123
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Гўзалхон Ақром қизи Абдурашидова</b> Маркетинг тизимида нархларни шакллантириш механизми тамойиллари ва усуллари	129
<b>Мохиғул Эркиновна Ахтамова</b> Стратегическое управление проектами в Республике Узбекистан: ключ к экономическому развитию	135
<b>Nargiz Toxirovna Sattarova</b> Mamlakatimizda sanoat korxonalarini boshqarish jarayonini takomillashtirish	139
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Ақрам Одилович Очилов, Дурдона Хасан қизи Рахмонова</b> Развитие экономики Кашкадарьинской области на основе внедрения инвестиций	143
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Jaxongir Rasulovich Zaynalov, Shaxnoza Maxmudovna Latipova</b> Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy siyosatni rivojlantirish yo‘llari	148

<p><b>L.Yoʻldosheva</b></p> <p><b>Turizm tizimi: turistik taklif va vositachi elementlar. Samarqand viloyati misolida</b></p> <p><b>Annotatsiya:</b> Ushbu maqolada turizm tizimining elementlari: talab va taklif haqida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlar tadqiq qilingan. Samarqand viloyati turistik tashkilotlari faoliyati statistik qiyosiy tahlil asosida batafsil yoritilib, viloyat turizm tizimida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar haqida tavsiya va takliflar keltirilgan.</p> <p><b>Kalit soʻzlar:</b> turistik taklif va talab, aqlli turistik hududlar, imij muvofiqligi, davlat turizm siyosati, iqtisodiy daromad.</p>	<p><b>Л.Юлдошева</b></p> <p><b>Система туризма: туристическое предложение и связующие компоненты. Свидетельства из Самарканда.</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в данной статье исследуются теоретические и практические подходы, разработанные в отношении элементов туристической системы: спроса и предложения. Подробно освещена деятельность туристских организаций Самаркандской области на основе статистического сравнительного анализа, даны несколько предложений о работе, которую следует провести в туристической системе региона.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туристическое предложение и спрос, умные туристические направления, соответствие имиджа, государственная туристическая политика, экономический доход.</p>
---	---

Shaxnoza Shuxrat qizi Xashimova – TDIU Turizm va servis kafedrasida tayanch doktoranti

### XORIJ MAMLAKATLARIDA SOGʻLOMLASHTIRISH TURIZMI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

<p><b>Annotatsiya:</b> maqolada sogʻlomlashtirish turizmi haqida maʼlumot berilgan, dunyoda va Turkiyada sogʻlomlashtirish turizmi sohasida olib borilayotgan islohotlar haqida qisqacha bayon qilingan, sogʻlomlashtirish turizmi salohiyati tahlil qilingan, dunyo boʻylab sogʻlomlashtirish turizmiga boʻlgan qiziqishlar haqida maʼlumotlar keltirilgan, shuningdek, maqolada sogʻlomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p> <p><b>Kalit soʻzlar:</b> sogʻlomlashtirish turizmi, tibbiy turizm, tibbiy xizmatlar, muolajalar, Turkiyada sogʻlomlashtirish turizmi, operatsiyalar, salomatlik.</p>
--

**Kirish.** Sogʻlomlashtirish (Sogʻliqni saqlash) turizmi - tashxis, davolash va reabilitatsiya xizmatlariga boʻlgan ehtiyoj natijasida yuzaga keladigan bemor salohiyatidan foydalangan holda sogʻliqni saqlash muassasalarining rivojlanishiga imkon beruvchi turizm turi. Aytish mumkinki, sogʻlomlashtirish turizmi odamlarning yashash joyidan tashqarida sayohat qilish orqali davolanishga intilishlari natijasida paydo boʻlgan. Bundan tashqari, sogʻlomlashtirish turizmi konsepsiyasi oʻzi yashayotgan joyning imkoniyatlari bilan davolana olmaydigan yoki kech tuzalib ketgan odamlarning davolanishini boshqa joylardan izlashidir. Sogʻliqni saqlash turizmi bemorlar va ularning yaqinlarining qulayligini taʼminlash uchun tibbiy imkoniyatlarni taqdim etishga qaratilgan.

Sogʻlomlashtirish turizmi yilning barcha vaqtlariga toʻgʻri keladigan tuzilishga ega boʻlganligi sababli, u odatda yoz oylariga xos "mavsumiy" deb hisoblangan turizm faoliyati bilan ajratib turadi va obyektlardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Chunki kasalliklar va davolanishni izlash fasli yoʻq. Sogʻlomlashtirish turizmi faoliyati toʻgʻri belgilansa, tegishli rejalashtirish amalga oshirilsa va ishga tushirilsa, mamlakatlar uchun noyob turizm salohiyatidan juda muhim iqtisodiy foyda olish mumkin. Shu bilan birga, sogʻlomlashtirish turizmi odamlarning turli kasallik muammolaridan xalos boʻlishiga yordam beradi, mamlakat ichki va xalqaro turizmini ragʻbatlantiradi, turli qoʻshimcha qiymatlarni yaratish orqali umumiy milliy daromadga hissa qoʻshadi. Sogʻlomlashtirish turizmining ahamiyati uning bevosita inson salomatligiga qaratilganligidan kelib chiqadi.


**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Salomatlik insoniyatning eng ajralmas asosiy ehtiyojidir. Barcha odamlar salomatlik uchun eng yaxshi sharoitlarda boʻlishni maqsad qiladi. Sogʻliqni saqlash bilan bogʻliq muassasalar bu borada shaxslarga eng yaxshi xizmatni taqdim etishga harakat qiladi. Har bir davlat sogʻliqni saqlash siyosatini belgilaydi va oʻz fuqarolarining

sogʻligʻiga boʻlgan ehtiyojlarini qondiradi. Bu ehtiyoj sogʻliqni saqlash, rivojlantirish va yaxshilashni oʻz ichiga oladi. Albes va Kipnisning fikriga koʻra salomatlikni ijtimoiy, psixologik va jismoniy farovonlik holati sifatida aniqlash mumkin<sup>1</sup>. Robinson va Elkanga koʻra, salomatlik “odamlarning hayotda ishtirok etish qobiliyati” deb taʼriflansa, Bouling fikriga koʻra esa “stressli vaziyatlarga qarshilik koʻrsatish, kuchli ijtimoiy muhitni oʻrnatish va saqlash qobiliyati” deb taʼriflanadi<sup>2</sup>.

Somunogʻlu bayon qilishicha qoʻllab-quvvatlash tizimi, jamiyat bilan integratsiya, yuqori maʼnaviyat, bu “hayotdan qoniqish, psixologik farovonlik va jismoniy uygʻunlik” deb taʼriflanadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSS) taʼrifiga koʻra, sogʻliqni saqlash “faqat kasallik va nogironlikning yoʻqligi emas, balki toʻliq jismoniy, maʼnaviy va ijtimoiy farovonlik holati” deb taʼriflanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishida olimlarning ilmiy ishlari oʻrganildi. Jahon turizmi va Turkiyada sogʻlomlashtirish turizmi salohiyati tahlil qilindi. Oʻtkazilgan soʻrovnoma yordamida aholining sogʻlomlashtirish turizmiga boʻlgan ehtiyojlari tadqiq qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Dunyo boʻylab yuz berayotgan globallashuv jarayonida texnologik oʻzgarishlar mamlakatlar oʻrtasida tez suratlarda tarqalmoqda. Soʻnggi yillarda Turkiya, Hindiston, Singapur, Malayziya va Janubiy Koreya kabi davlatlar sogʻlomlashtirish turizmini muhim yoʻnalish sifatida birinchi oʻringa chiqarmoqda. Maqolada mavzuga oid turli nashrlardan, kitoblardan va veb-saytlardan olingan “sogʻlomlashtirish turizmi, tibbiy turizm, dunyoda sogʻlomlashtirish turizmi” kabi tushunchalar tizimli tahlil qilindi hamda jahon turizmida va Turkiyada sogʻlomlashtirish turizmi nuqtayi nazaridan tadqiq etildi.



### 1-rasm. Sogʻlomlashtirish turizmi turlari boʻyicha sinflarga boʻlinishi<sup>3</sup>.

Sogʻlomlashtirish turizmi turlari boʻyicha toʻrt sinfga boʻlinadi: tibbiy turizm, termal/SPA/sogʻlomlashtirish turizmi, keksalar turizmi va nogironlar turizmi.<sup>4</sup> Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va isteʼmolchilarning xulq-atvori kabi omillar sogʻlomlashtirish turizmi rivojlanishining muhim qismi hisoblanadi.

Sogʻlomlashtirish turizmi yuqorida taʼkidlanganidek toʻrtta turi boʻyicha alohida koʻrib chiqamiz.

**Tibbiy turizm:** Tibbiy turizm - bu sogʻlom turmush kechirish va farovonligini yaxshilash uchun amalga oshiriladigan tibbiy muolajalar.

<sup>1</sup> Abels D. and Kipnis V. (1998). Bioclimatology and Balneology in Dermatology: A Dead Sea Perspective, Clinics in Dermatology, 16(6):695-98.

<sup>2</sup> Aslan Ş. ve Güzel Ş. (2016) Türkiye’de Sağlık Turizminde Bozkır Örneği. Uluslararası Sempozyum: Geçmişten Günümüze Bozkır. 1143-56.

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>4</sup> Bulut, A. ve Şengül, H. (2019). Dünyada ve Türkiye’de Sağlık Turizmi, Yönetim, Ekonomi ve Pazarlama Araştırmaları Dergisi, 3(1):45-62.

© 2019 Yönetim, Ekonomi ve Pazarlama Araştırmaları Dergisi

**Turistlar tomonidan qabul qilinadigan baʼzi tibbiy amaliyotlar<sup>1</sup>**

1.	• Murakkab davolash usullari (yurak-qon tomir jarrohligi, radiatsiya terapiyasi va boshqalar)
2.	• Bepushtlik (in vitro urugʻlantirish ilovalari va h.k.)
3.	• Plastik jarrohlik (estetik jarrohlik, koʻkrakni kattalashtirish, koʻkrak kichraytirish va h.k.)
4.	• Tish muolajalari (protez va boshqalar)
5.	• Semirib ketish jarrohligi (Oshqozonni kichiklashtirish va boshqalar)
6.	• Koʻz, dializ muolajalari va boshqalar.
7.	• Transplantatsiya (yurak, jigar, buyrak transplantatsiyasi va boshqalar),

Tibbiy turizmda amalga oshiriladigan protseduralar boʻyicha alohida mamlakatlar bor. Ayniqsa, yurak va ortopediya jarrohligida Hindiston, Singapur va Tailand kabi davlatlar raqobatchilarga nisbatan arzonroq narxlarda koʻrsatayotgan tibbiy xizmatlar, yaʼni narx ustunligi bu mamlakatlarni sogʻlom turistlar uchun jozibador qildi.

**Keksalar turizmi:** Keksalar turizmida – parvarishga muhtoj boʻlgan qariyalar oʻzlarining parvarish ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa mamlakatlarga sayohat qilishlaridir. Soʻnggi yillarda keksalarni parvarishlash uchun tashkil etilgan muassasalar va shu maqsadda amalga oshirilayotgan sayohatlar tufayli keksalar turizmi sogʻlomlashtirish turizmining yangi turi sifatida namoyon boʻlmoqda. Turkiyada keksa aholi (65 va undan katta) 2017-yilda 5 million 891 ming 694 kishi boʻlgan boʻlsa, soʻnggi besh yil ichida 17 foizga ortib, 2023-yilda 6 million 895 ming 385 kishiga yetdi (TUIK, 2023)<sup>2</sup>. Keksalar aholi sonining ortishi faqat Turkiya bilan cheklanmaydi. Yevropa va AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda qariyalar soni koʻpchilikni tashkil etadi. Yaqin Sharq va Osiyoning bohsqa hududlaridagi mamlakatlarni hisobga oladigan boʻlsak, keksalar salomatligi turizmi nuqtayi nazaridan mamlakatimiz yuqori salohiyatga ega ekanligini koʻrish mumkin. Oʻzbekistonda ushbu yoʻnalishda diqqatga sazovor joylarga sayohatlar, kasbiy terapiya, qariyalar uyi yoki keksalar uchun reabilitatsiya xizmatlari Keksalar turizmini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

**Nogironlar turizmi:** Jismoniy, aqliy va maʼnaviy xususiyatlarning ayrimlarini maʼlum darajada doimiy va funksional foydalana olmaslik yoki koʻrish qobiliyati qisman yoki toʻliq yoʻqolgan shaxslar bilan bogʻliq turizm nogironlar turizmi deb ataladi. Ushbu muammolar normal hayot sharoitida yashashga toʻsqinlik qiladi. Bugungi kunda turizm turlari talab, maqsad va odamlarning didi va xohishiga koʻra turlicha boʻlib, innovatsiyalar bilan tobora boyib bormoqda. Afsuski, koʻpincha nogironlar bu kabi ijobiy oʻzgarishlardan teng ravishda foydalana olmaydi. Dunyoda nogironlarning umumiy soni dunyo aholisining taxminan 8%ini tashkil qiladi. Turkiyada nogironlarning soni umumiy aholiga nisbatan 12% atrofida. Boshqacha aytganda, Turkiyada 9 millionga yaqin nogironlar bor (TUIK, 2020)<sup>3</sup>. Nogironlar ham jamiyatdagi boshqa shaxslar kabi sayohat qilishlari, tashrif buyurishlari, dam olishlari va davolanishlari kerak. Bundan kelib chiqib, Turkiyada ham, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham nogironligi boʻlgan sayyohlar uchun ularni sayohat qilishlariga va oʻz ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratish lozim.

**Termal/SPA/sogʻlomlashtirish turizmi:** Termal turizm termal suvlardan shifo sifatida taʼriflanadi. Yana bir taʼrifda termal turizm - bemor shifo topish yoki sogʻligʻini himoya qilish uchun termal buloqlarga kelganida yuzaga keladigan turizm turidir. Termal turizm bugungi kunda sogʻlom boʻlishni turmush tarziga aylantirgan, tana va ruh goʻzalligiga ahamiyat beradigan odamlarga xizmat koʻrsatish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Termal turizm turini uch xil shaklga ajratish mumkin:

<sup>1</sup> Ataman, H., Esen, M. F. ve Vatan, A. (2017). Medikal Turizm Kapsamında Sunulan Sağlık Hizmetlerinde Kalite Ve Hasta Güvenliği, Uluslararası Sağlık Yönetimi ve Stratejileri Araştırma Dergisi, 3(1):28-44


<sup>2</sup> Türkiye İstatistik Kurumu (TÜİK) (tuik.gov.tr)

<sup>3</sup> Türkiye İstatistik Kurumu (TÜİK) (tuik.gov.tr)

1. Klimatizm (toza havoning shifobaxsh ta'siridan foydalanish uchun qo'llaniladigan davolash);
2. Termalizm (issiq buloqlar va termal buloqlardan olingan tabiiy suv resurslari bilan qo'llaniladigan davolash);
3. Uvalizm (meva va sabzavotlar bilan amalga oshiriladigan davolash).

Spa-sog'lomlashtirish turizmi "Suvdan salomatlik" degan ma'noni anglatadi va shu bilan birga, "Wellness" so'zi "aql, tana, ruh va munosabatlarda yaxshi va mos bo'lishni" anglatadi. Tabiat, tabiiy mahsulotlar va sog'lom turmush tarzi bilan amalga oshiriladigan tana parvarishi, masalan, terini parvarish qilish, loy va dengiz o'tlari vannalari, vannalar bilan davolash, talassoterapiya (dengiz bilan davolash) sog'lomlashtirish doirasiga kiradi.

Odamlarning istiqomat qilayotgan shaharlaridan tashqarida hayot kechirishining tez o'sishi bilan sog'lomlashtirish turizmi muhim bozor segmenti sifatida paydo bo'ldi va butun dunyo bo'ylab tez rivojlanmoqda. Sog'lomlashtirish turizmida tashrif buyurilgan mintaqaga hamda bemorlar joylashgan mamlakatga qarab davolanish xarajatlari 50%, 70% va hatto ba'zi hollarda 80% gacha tejamkorlikni ta'minlaydi. Misol uchun, Nyu-Yorkda yurak jarrohligi 250 000 dollar tursa, Hindistonning Nyu-Dehli shahrida 50 000 dollar turadi. Hindistonda o'tkaziladigan jarrohlik AQSHda o'tkaziladigan jarrohlik xarajatlariga nisbatan 80% tejamkorlikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, bypass operatsiyalari toifasidagi eng arzon operatsiyalar Turkiyada amalga oshiriladi, narxi 11 375-15 000 AQSH dollari oralig'ida. Yana umurtqa sintez operatsiyalarida Turkiya 7125 AQSH dollari bahosi bilan Tayvandan keyingi o'rinda, suyak iligi transplantatsiyasida esa Turkiya 40-70 ming dollar narx oralig'ida Hindistondan keyingi o'rinda turadi.



2-diagramma. Yurak jarrohligining narxi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda ko'plab Osiyo mamlakatlari sog'lomlashtirish turizmi bozorida ustunlik qiladi. Ko'pgina davlatlar hali ham ushbu bozorga kirishga harakat qilmoqda. Ayniqsa Hindiston o'zining juda past narxlari bilan bozorda muhim o'rin egallaydi. Mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning ulushini rivojlanish darajasiga qarab sog'liqni saqlash xarajatlari uchun 2% dan 16% gacha ajratadi. Ma'lumki, AQSHda sog'liqni saqlash turizmi xarajatlari 5,5 milliard dollar va Yevropada 3,5 milliard yevro<sup>2</sup>. Sog'liqni saqlash turizmi doirasida Turkiyada 2017-2020 yillar oralig'ida har bir turist uchun o'rtacha 2142,4 AQSH dollari bo'lsa, boshqa toifalarda bir turist uchun o'rtacha 796,6 AQSH dollari bo'lgani aniqlandi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarda sog'liqni saqlashga sarflangan xarajatlarning o'rtacha

<sup>1</sup> Bookman MZ. and Bookman KR. Medical tourism in developing countries. New York, NY:Palgrave Macmillan Ltd; 2007:169-85.

<sup>2</sup> www.satürk.gov.tr .

73 foizi aholi tomonidan qoplanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar uchun joriy sog'liqni saqlash xarajatlarining YaIMga nisbati 2020-yilda o'rtacha 9 foizni tashkil etdi. Turkiyada bu ko'rsatkich 2020-yilda 4,3 foizni tashkil etgan. Umumiy turizm daromadlarida sog'lomlashtirish turizmi daromadlari salmoqli ulushga ega. Jahon Turizm Tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2019-yilda dunyoda sog'liqni saqlash turizmi sektoridan olingan daromad 100 milliard dollardan oshdi. Ma'lumki, Vengriya, Chexiya, Rumuniya kabi davlatlardan Chexiyaning sog'lomlashtirish turizmidan olgan daromadi 1 milliard AQSH dollaridan oshadi<sup>1</sup>.

Turistik destinatsiyalar ishlab chiqishda ko'plab kompaniyalar, mahalliy va mintaqaviy hokimiyatlar ishtirok etadi. Ushbu yo'nalishlar turistlar qolishini va ularning ehtiyojlarini qondirishini ta'minlay olish darajasiga qarab aniqlab olinadi. O'tgan yillarda destinatsiyalar bo'yicha raqobatbardoshlik strategiyalarida narx hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa-da, 1990-yillarning boshidan boshlab, narx va nisbiy afzalliklardan tashqari, ko'plab turli omillar turistik yo'nalish va korxonaning raqobatbardoshligini aniqlashga sabab bo'ldi. So'nggi yillarda ba'zi mamlakatlar xalqaro miqyosda sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishlari bo'yicha birinchi o'ringa chiqqani kuzatilmoqda.

Menejment, iqtisodiyot va marketing tadqiqotlari jurnaliga ko'ra turistik harakatlar va sayyohlarning destinatsiyaga qarab turlicha bo'lgan fikrlari ham destinatsiyalarning rivojlanish darajalariga ta'sir qiladi. Eng mashhur davlatlar orasida Turkiya, AQSH, Hindiston, Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Tailand, Vengriya, Braziliya, Argentina, Janubiy Afrika, Kuba, Meksika, Germaniya, Italiya, Fransiya, Polsha, Ispaniya, Gretsiya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin. Ushbu davlatlardan biri bo'lgan Tailand 1970-yillarda jinsini o'zgartirish operatsiyalari bilan tibbiy turizmida birinchi o'ringa chiqdi, keyinchalik kosmetik jarrohlik bilan bozorda faol rol o'ynadi. Malayziya 1998-yilgi Osiyo iqtisodiy inqirozidan keyin tibbiy turizm bo'yicha chora ko'rdi va inqirozni yengib o'tishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hindiston raqobatbardosh ustunlikka ega, chunki u xalqaro standartlarda xizmat ko'rsata oladigan ko'plab malakali sog'liqni saqlash xodimlariga ega va tibbiy turizm xarajatlari nisbatan arzon.

1990-2000-yillarda Turkiyada sog'lomlashtirish turizmi muhokama qilina boshlandi. Ayniqsa 1980-1990-yillar orasida Turkiya sog'liqni saqlash tizimida turli tuzilmaviy muammolar borligi kuzatildi. Ushbu davrdagi asosiy muammolar moliyaviy qiyinchiliklar, sug'urta va ijtimoiy ta'minot tizimining tarqoq va murakkab tuzilmasi, sog'liqni saqlash muassasalari va tibbiyot xodimlarining miqdor va sifat jihatidan mos kelmasligi va muvofiqlashtirilmasligi, tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi qiyinchilik va boshqa muammolar edi. Bu muammolar natijasida Turkiyada sifatli tibbiy xizmatdan foydalana olmagan boy fuqarolar Amerika va Yevropaga davolanish uchun ketayotgan edi. 2010-2014-yillardagi strategik harakatlar rejasiga ko'ra 2010-yilda Turkiyada sog'lomlashtirish turizmi xizmatlarini yo'lga qo'yish va nazorat qilish uchun Sog'lomlashtirish turizmi bo'limi tashkil etilgan va sog'liqni saqlash turizmi bilan bog'liq birinchi qonunchilik hujjatlari 2011-yilda nashr etilgan. Sog'lomlashtirish turizmi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yilga mo'ljallangan hukumat dasturlariga kiritilgan. Turkiya nafaqat tarixiy va tabiiy go'zalliklari, madaniy merosi, geografik joylashuvi va arzon narxlari bilan, balki rivojlangan infratuzilmasi, malakali va o'qimishli kadrlarga ega bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalari bilan sog'lomlashtirish turizmida yetakchi bo'lish salohiyatiga ega davlatdir<sup>2</sup>.

Turkiya sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarining aksariyati bo'yicha OECD mamlakatlari o'rtacha darajasidan past bo'lsa-da, so'nggi yillarda sog'lomlashtirish turizmi rivojlantirish mutaxassislarni diqqat markaziga aylandi. Jahon Turizm Tashkilotining (UNWTO) 2019-yil hisobotiga ko'ra, Turkiyada so'nggi yillarda xalqaro bemorlar soni ortgan bo'lsa-da, dunyo bo'ylab sog'lomlashtirish turizmi uchun sayohat qilgan bemorlar soni ortishidan orqada qolmoqda. Ayniqsa, organlar transplantatsiyasi, genetik test, neyroxirurgiya, oftalmologiya (dunyodagi eng katta ko'z klinikasi tarmog'i Istanbulda joylashgan), kardiologiya, ortopediya, plastik jarrohlik va stomatologiya sohalarida erishilgan muhim yutuqlar Turkiyani

<sup>1</sup> www.satark.gov.tr

<sup>2</sup> www.satark.gov.tr

sogʻlomlashtirish turizmida birinchi oʻringa olib chiqadi<sup>1</sup>. Sogʻlomlashtirish dasturi joriy etilgandan soʻng, Turkiyadan tibbiy xizmatlarni olish uchun chet elga chiqadigan sayyohlar deyarli yoʻq. Fuqarolar sogʻliqni saqlash, qisqa muddatli uchrashuvlar va barchasini qamrab oluvchi tibbiy sugʻurta tizimiga ega boʻlgan tibbiy xizmatlardan osongina foydalanishlari mumkin. Qolaversa Turkiya termal suv resurslariga boyligi, xizmat koʻrsatishda sifat standartlari yuqori boʻlgan sogʻliqni saqlash muassasalari, malakali kadrlar va hukumatning bu boradagi siyosati bilan sarmoyadorlar uchun katta afzalliklarga ega.

Sogʻliq inson uchun eng oliy neʼmat hisoblanadi. Dunyoning barcha mamlakatlari oʻzlarining sogʻliqni saqlash siyosatini belgilaydilar va oʻz fuqarolarining tibbiy xizmatlarga boʻlgan ehtiyojlarini qondiradilar, yaʼni sogʻliqni muhofaza qilish, yaxshilash va kasallikni oldini olish ana shu ehtiyojlardandir. Har bir inson sogʻligʻini tiklash uchun eng yaxshi sharoitlarda boʻlishni maqsad qiladi. Bundan tashqari, sogʻligʻini yoʻqotgan odamlar sayohat qilish va yashash joyidan tashqarida qolish orqali davolanishni maqsad qilishi sogʻlomlashtirish turizmiga ehtiyoj uygʻotadi. XX asr oxiridan boshlab rivojlanayotgan mamlakatlardagi boy odamlar oʻz mamlakatlarida sifatli tibbiy xizmatlar mavjud boʻlmaganligi sababli davolanish uchun rivojlangan mamlakatlardagi sogʻliqni saqlash muassasalariga borib, ularning tibbiy xizmatlaridan foydalanmoqdalar. Bugungi kunga qadar sogʻlomlashtirish turizmida koʻplab muhim yutuqlarga erishildi. Baʼzi mamlakatlar xalqaro miqyosda sogʻlomlashtirish turizmi yoʻnalishlari boʻyicha ajralib turishini va yetakchiga aylanganligini kuzatishimiz mumkin. Dunyodagi globallashuv jarayoni sogʻlomlashtirish turizmining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatmoqda. Mavjud oʻzgarishlar bilan bir qatorda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, mamlakat sogʻliqni saqlash sohasidagi muammolar, xizmatlarning narxi va ulardan foydalanish muammolari, isteʼmolchilarning xatti-harakatlari, yangi bozorlarni izlash kabi omillar sogʻlomlashtirish turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sogʻlomlashtirish turizmi rivojlanib borayotgan yoʻnalishlardan biri boʻlib, ushbu yoʻnalishni rivojlanishini taʼminlash va oldidagi toʻsiqlarni bartaraf etish boʻyicha quyidagi takliflar keltirilgan:

- davlat sogʻlomlashtirish turizmi boʻyicha xalqaro standartlarga muvofiq qonunchilikni qabul qilish;
- sogʻlomlashtirish turizmi investorlari uchun byurokratik tartiblarni qisqartirish, sarmoya kiritish uchun soliq imtiyozlarini berish va litsenziyalash jarayonlarini amalga oshirish;
- sogʻlomlashtirish turizmi uchun zarur boʻlgan tibbiy xizmatlarni yetkazib beruvchilar, transport xizmatlari va turar joy xizmatlari kabi turli sohalarning birgalikda ishlashini taʼminlash;
- tibbiy xizmatlarni koʻrsatuvchi xususiy sektor bilan davlat muassasalarini hamkorlikda ishlashini hamda soha oldidagi muammolarni bartaraf etish boʻyicha birgalikda takliflarni ishlab chiqish va dasturlarga kiritish;
- bemor va tibbiyot xodimi oʻrtasidagi muloqot muammosini bartaraf etish uchun tibbiy xizmat koʻrsatuvchi muassasalar chet tilini biladigan xodimlarni ishga jalb qilish;
- xalqaro miqyosda amal qiladigan tibbiy sugʻurtadan foydalanishni ragʻbatlantirish va bu sugʻurtalarning mamlakat ichida amal qilishini taʼminlash kerak.
- sogʻliqni saqlash muassasalari JCI kabi xalqaro sertifikatlarga ega standartlarga mos kelishini taʼminlash;
- sogʻlomlashtirish turizmida xizmatlarini yetkazib beruvchilar gigiyena, ovqatlanish odatlari va turmush tarzi kabi mamlakatlar oʻrtasidagi madaniy farqlardan kelib chiqadigan tashvish va qoʻrquvlarni hal qilish uchun zarur institutsional tashkilotlarni tashkil etish;
- xalqaro miqyosda malakali va oʻqitilgan tibbiyot xodimlari sonini koʻpaytirish;
- sogʻlomlashtirish turizmi sohasida mamlakatlar oʻrtasida ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish lozim.

---

<sup>1</sup> www.saturk.gov.tr

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Aydın, D. ve Yılmaz, C. (2010). Temel Sağlık Hizmetleri Genel Müdürlüğü (Sağlık Turizmi Birimi) Medikal Turizm Araştırması (Birinci Bölüm) Ankara, Ekim–Aralık.
2. Ataman H., Esen M. F. ve Vatan A. (2017). Medikal Turizm Kapsamında Sunulan Sağlık Hizmetlerinde Kalite Ve Hasta Güvenliği, Uluslararası Sağlık Yönetimi ve Stratejileri Araştırma Dergisi, 3(1):28-44
3. Bulut A. ve Şengül H. (2019). Dünyada ve Türkiye’de Sağlık Turizmi, Yönetim, Ekonomi ve Pazarlama Araştırmaları Dergisi, 3(1):45-62. © 2019 Yönetim, Ekonomi ve Pazarlama Araştırmaları Dergisi
4. Aydın, O. (2012). Türkiye'de alternatif bir turizm; sağlık turizmi. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Sosyal Ve Ekonomik Araştırmalar Dergisi, 2012(2):91-96.
5. Aydın D., Constantinides C., Mike C., Yılmaz C., Genç A. ve Lanyi A. (2012). Sağlık Turizminde Süreçler ve Aracı Kuruluşlar Araştırma Raporu, Sağlık Bakanlığı Sağlık Hizmetleri Genel Müdürlüğü, Ankara.
6. Bakır A. (2018). Geç Orta Çağ Avrupa’sında Tıp ve Tababet. Ortaçağ Araştırmaları Dergisi, (1):101-18
7. Balaban, M. (2010). Dünyada Ve Türkiye’de Sağlık Turizmi, Efil Yayınevi, Kasım 2010, Yayın. No: 87, Türkiye Sağlık Vakfı Raporu.
8. Baukute, G. (2012). Medical Tourism: The Analysis of Positive Aspects of Establishing Medical. Tourism Sector in Lithuania, Doktora tezi, Central European University Department of Public. Policy, Budapeşte.
1. Thalassotherapy. Journal of Coastal Research, 25(4):838–56.
2. <https://docs.wixstatic.com>
3. [www.satürk.gov.tr](http://www.satürk.gov.tr)

<p><b>Ш.Хашимова</b></p> <p><b>Оздоровительный туризм в зарубежных странах и особенности его развития</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в статье представлены сведения об оздоровительном туризме, кратко описаны реформы, проводимые и проводящиеся в сфере оздоровительного туризма в мире и в Турции, анализируется потенциал оздоровительного туризма во всем мире, об интересах туристов, а также предложения и рекомендации по дальнейшему развитию оздоровительного туризма.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> оздоровительный туризм, медицинский туризм, медицинские услуги, лечение, оздоровительный туризм в Турции, операции, здоровье.</p>	<p><b>Sh.Khashimova</b></p> <p><b>Health tourism in foreign countries and characteristics of its development</b></p> <p><b>Abstract:</b> the article provides information about health tourism, briefly describes the reforms carried out and being carried out in the field of health tourism in the world and in Turkey, analyzes the potential of health tourism around the world. The article contains information about the interests of tourists, as well as suggestions and recommendations for the further development of health tourism.</p> <p><b>Keywords:</b> health tourism, medical tourism, treatments, health tourism in Turkey, operations, health.</p>
--	--

**Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов** – Наманган муҳандислик-технология институти доценти, PhD

**ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ДИНАМИКАСИ, ШАКЛЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ**

**Аннотация:** ушбу мақолада халқаро туризм индустрияси ривожланиш динамикаси таҳлили, уларни шаклланиш тенденциялари асосида халқаро туристик оқимларни кўпайтириш йўналишлари берилган бўлиб, шу асосда мамлакат туристик индустриясида халқаро туристлар салмоғини ошириш йўллари тақдим этилган.

**Калит сўзлар:** туризм, халқаро туризм, глобал туристик индустрия, халқаро сайёҳлар, туристик оқимлар, туризмдаги даромад, молиявий инқирозлар, прогнозлаш.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.